

O‘ZBEKISTON SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR DUNYO HIGOHIDA

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Texnologiya va geografiya kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar dunyo higoHida qanday talqin qilinayotganligi hamda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni so‘nggi yillarda jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilgan ishlar haqida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat aholisining salomatligini yaxshilash, sog‘liqni saqlash xizmatlarini yangilash va ularning sifatini oshirishdan iboratligi ham takidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash tizimi islohoti, tibbiy ta‘lim, sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, telemeditsina, profilaktika va sog‘lomlashtirish, xalqaro hamkorlik

Abstract: This article provides information on how Uzbekistan's health care reforms are interpreted in the world and the rapid implementation of Uzbekistan's health care reforms in recent years. It was also noted that the main goal of these reforms is to improve the health of the country's population, update healthcare services and increase their quality.

Key words: healthcare system reform, medical education, healthcare infrastructure, telemedicine, prevention and health promotion, international cooperation

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, как реформы здравоохранения Узбекистана интерпретируются в мире, а также о быстрой реализации реформ здравоохранения Узбекистана в последние годы. Также было отмечено, что основной целью данных реформ является улучшение здоровья населения страны, обновление медицинских услуг и повышение их качества.



Ключевые слова: реформа системы здравоохранения, медицинское образование, инфраструктура здравоохранения, телемедицина, профилактика и укрепление здоровья, международное сотрудничество.

Kirish: 2024 yil 21 mayidan o‘z ishini boshlagan Jahon sog‘liqni saqlash assambleyasining 71-sessiyasi Jyenevada o‘tayotganda 194 ta davlatlar qatorida O‘zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etishdi.

Har yili Jenevada o‘tkaziluvchi Jahon sog‘liqni saqlash assambleyasining sessiyasida JSSTga a‘zo davlatlar vakillari ishtirok etib, sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha kuzatilayotgan global muammolar va ularning yechimlari borasida muhokamalar o‘tkazadi. Sessiyada atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarining salomatlikka salbiy ta‘siri va unga qarshi kurashish bo‘yicha yo‘l xaritasi, doridarmon va vaksina ta‘minoti, noinfeksion kasalliklar profilaktikasi, ayollar, bolalar va o‘smirlar salomatligini muhofaza qilish kabi masalalar bo‘yicha davra suhbatlari otkaziladi.

So‘nggi ikki yil ichida O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida aholining barcha qatlamiga, ayniqsa, uzoq qishloq aholisiga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar bugun davlat siyosatining bosh maqsadiga aylangan, Shu maqsadda 100dan ortiq huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilindi. Ularda sohaning barcha yo‘nalishlarini kompleks rivojlantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar qamrab olingan. Hozirda O‘zbekiston belgilangan vazifalar ijrosi doirasida qator ijobiy natijalarga erishdi. Bunga misol qilib, 1283 ta tez tibbiy yordam avtotransport vositalari xarid qilingani, natijada, chaqiriq tushgach, tez yordam xizmatining yetib borish vaqti 20-30 daqiqadan 10-15 daqiqagacha, xizmat radiusi esa 5-12 kilometr gacha qisqarganini aytish mumkin. Qolaversa, 2017 yilda O‘zbekistonga 311 nafar xorijlik mutaxassislar taklif qilindi. Ular bilan hamkorlikda 800 dan ortiq murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazildi.

290 nafardan ortiq mamlakatimiz mutaxassislari esa dunyoning yetakchi klinikalarida malaka oshirib keldi. O‘zbekiston tibbiyotidagi eng katta yangiliklardan biri sifatida transplantatsiya amaliyotining yo‘lga qo‘yilganini aytish mumkin. Xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlikda buyrak, jigar va o‘zak hujayra transplantatsiyasi bajarilmoqda.

Mamlakatda xususiy sektorni rivojlantirish, immunoprofilaktika sohasidagi natijalar bilan tanishtirdi. Darhaqiqat, bugun mamlakat tibbiyotida xususiy sektor ulushi ortib bormoqda. Bunda davlatimiz rahbarining xususiy tibbiyot tashkilotlarini

yanada rivojlantirish, ularga qo‘shimcha shart-sharoit va imtiyozlar berish bo‘yicha qabul qilingan qarorlari huquqiy asos bo‘lmoqda.

Asosiy qism: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha qaroridan so‘ng O‘zbekistondagi xususiy klinikalar soni so‘nggi yilda 3040 tadan 4073 ta oshdi. Mamlakatimiz tibbiyoti tarixida birinchi marta xususiy klinikalarga deyarli barcha yo‘nalishlarda, xususan, abdominal jarrohlik, torakal jarrohlik, neyroxirurgiya, onkologiya, travmatologiya va bolalar jarrohligi bo‘yicha litsenziya berishga ruxsat etildi. Milliy emlash kalendari bo‘yicha mamlakatimizda bolalar 12 ta boshqariladigan infeksiyaga qarshi davlat hisobidan profilaktik emlanadi. Yuqumli kasalliklarga qarshi emlash uchun sarflanadigan mablag‘lar to‘liq davlat byudjyeti hisobidan qoplanib, emlash qamrovi 99,5 foizga yetkazildi. Natijada 2017 yil Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan O‘zbekiston qizamiq va qizilcha kasalliklaridan xoli hudud deb e’tirof etildi. Shuningdek, 2019-2020 yillarda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi va unda belgilangan vazifalar inobatga olingan. Ushbu natijalar biz ko‘zlagan marraning boshlanishi. Kelajakda tibbiy xizmat boshqaruvini optimallashtirish, infrastrukturani yaxshilash, tibbiy xizmat normativlari va standartlarini ishlab chiqish, dori-darmon ta‘minotini yaxshilash, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish va sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini jadal tatbiq etish bo‘yicha aniq reja va dasturlar ishlab chiqilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar natijalari tahlil qilinib, yangi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-noyabr kuni sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi islohotlar natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi ustuvor vazifalar belgilangan.

Davlatimiz rahbari barcha islohotlardan asosiy maqsad odamlar hayotini yaxshilash ekani, sifatli tibbiy xizmat bu borada muhim o‘rin tutishini ta’kidlaganlar.

Keyingi ikki yilda Prezidentning sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilindi. 6 ta yangi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ularning soni 16 taga yetdi. Xalqimizga yanada qulay bo‘lishi uchun hududlarda ularning 10 ta filiali ish

boshladi. Tuman va shahar shifoxonalarida 306 ta yangi ixtisoslashgan bo‘limlar, 1 ming 200 ta tez tibbiy yordam shoxobchasi ochildi.

Umuman olganda, joriy yilda tibbiyot sohasiga davlat byudjetidan 2017-yilga nisbatan 40 foiz ko‘p mablag‘ ajratildi. Yig‘ilishda kelasi yil sohaga qariyb 30 foiz ko‘p mablag‘ yo‘naltirish rejalashtirilgani qayd etildi.

Prezidentning kuni kecha qabul qilingan “Davlat tibbiyot muassasalari va sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohadagi yana bir ijobiy yangilik bo‘ldi. Unga muvofiq, tibbiyot xodimlarining oylik maoshi 1 dekabrda 20 foizga, 2019-yil 1-apreldan yana 15 foizga oshiriladi.

Farmon va qarorlar chiqarilib, sohaga shuncha imkoniyatlar yaratildi, dolzarb masalalar hal qilib berildi. Lekin sog‘liqni saqlash tizimida kutilgan natijalar ko‘rinmayapti. Ayniqsa, tumanlar, chekka qishloqlardagi aholi tibbiy xizmatdagi jiddiy va tub o‘zgarishlarni o‘z hayotida sezayotgani yo‘q.

Joriy yilning o‘tgan davrida Prezidentning Virtual qabulxonasiga tibbiyot sohasiga doir 45 mingdan ziyod murojaat kelib tushgani, bu sohada hali muammolar borligini ko‘rsatishi qayd etildi.

Masalan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi, tuman markaziy shifoxonalarining moddiy-texnika bazasi va malakali kadrlar bilan ta‘minlanish darajasi talabga javob bermaydi. Buning oqibatida hududlardagi bemorlar katta mablag‘ sarflab, Toshkent shahriga borishga yoki chet davlatlarga borishga majbur bo‘lmoqda.

Shu bois yig‘ilishda tibbiyot tizimidagi muammolarni vaqtda aniqlash va hal etish, buning uchun hududlardagi holatni to‘liq qayta ko‘rib chiqish, o‘rganishlarda qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikadan markaziy tibbiyot muassasalarigacha qamrab olish kerakligi ta‘kidlandi.

Muhokama: Tibbiy xizmat ko‘rsatishda respublika, viloyat, tuman va qishloq bo‘g‘inlari o‘rtasida bog‘liqlikni kuchaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Bunda, avvalo, mahallalarda profilaktika ishlari va tibbiy ko‘riklar yaxshi tashkil etilib, kasalliklarning oldi olinadi, zarur hollarda bemorlar tuman va viloyat markazlariga yuboriladi. Tuman tibbiyot birlashmalari esa kasallarni imkon qadar o‘zida davolab, og‘ir bemorlarni viloyat va respublika muassasalariga yo‘naltiradi. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari esa o‘z ixtisosligi bo‘yicha

yagona metodik, texnologik, davolash va profilaktika siyosatini amalga oshirib, aholi salomatligini mustahkamlaydi.

Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish masalalariga ham e'tibor qaratiladi. Onalar va bolalar o'limiga sabab bo'layotgan omillarni chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni profilaktika qilish ishlari talab darajasida yo'lga qo'yilmagani qayd etildi. Qator ixtisoslashtirilgan markazlarning bu boradagi faoliyati tanqid qilindi.

Ayrim hududlarda yuqumli kasalliklarning oldini olish va davolash ishlari ham qoniqarli emas. Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida gepatit, o'pka sili bilan kasallanish soni respublika bo'yicha 20 foizgacha kamaygan bo'lsa-da, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining ayrim tumanlarida kamaymagan.

Shu bois respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlaridagi moddiy-texnik baza va davolash holatini o'rganib, mavjud kamchiliklarni hal etish, OITSning oldini olish, xorijiy davlatlarda mehnat qilib qaytgan shaxslarni majburiy test tekshiruvidan o'tkazishning qonuniy mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi kerak.

Xususiy tibbiyot muassasalari tarmog'ini yanada kengaytirish masalalariga e'tibor qaratildi. Xususiy tibbiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, yirik shaharlarda nafaqat yurtdoshlarimiz, balki qo'shni mamlakatlar fuqarolariga ham tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjud.

Shuning uchun mutasaddilarga xususiy tibbiyot muassasalari tarmog'ini kengaytirish, Toshkent, Samarqand, Andijon kabi yirik shaharlarda "tibbiyot xab"larini barpo etish bo'yicha imkoniyat yaratilishi kerak.

Kasalliklarning oldini olishning eng kamxarj va samarali yo'li aholining sog'lom turmush tarzi va sog'lom ovqatlanish madaniyatiga amal qilishidir.

Afsuski, kamharakatlilik va noto'g'ri ovqatlanish oqibatida O'zbekiston aholisining yarmi ortiqcha vaznga ega, odamlarimizning 46 foizi qon tarkibida me'yordan ortiq xolesterin mavjud, 31 foizida qon bosimi yuqori.

Shu bois aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini va sog'lom ovqatlanish madaniyatini targ'ib qilish orqali kasalliklar profilaktikasini kuchaytirish yuzasidan ishlar olib borilishi kerak.

Masalan, sohani moliyalashtirishning amaldagi smeta usuli eskirgani, tibbiyot muassasalari qancha bemor davolanganiga qarab emas, koyka-o‘rinlar soniga qarab moliyalashtirib kelinayotgani qayd etildi. Bugungi zamon talablari va xorij tajribasidan kelib chiqib, sinov tariqasida mamlakatimizning 14 ta hududida bittadan tibbiyot birlashmasini aholi jon boshiga va statsionar sharoitda davolanganlar soniga qarab moliyalashtirish lozim.

Bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlarda majburiy tibbiy sug‘urta tizimi joriy etilgan. Bu orqali byudjet xarajatlarini kamaytirish, tibbiy xizmat sifatini oshirishga erishilgan.

Yig‘ilishda 2021-yildan boshlab yurtimizda ham majburiy tibbiy sug‘urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, Janubiy Koreya, Singapur, Germaniya kabi davlatlardan xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda, tegishli qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish zarur.

Tibbiyot sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirish, ayrim davolash muassasalarini shunday sheriklik asosida yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlash, ularga to‘liq moliyaviy mustaqillikka erishih zarur.

Tibbiy ta’lim tizimini isloh qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Nufuzli xorijiy ta’lim muassasalari filiallarini ochish, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish masalalari bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirish kerak..

Xalqimizda “El sog‘ligi — yurt boyligi”, degan naql bor. Topib aytilgan bu hikmat zamirida katta ma’no mujassam. Zero, har bir inson o‘z maqsadiga erishishi uchun, eng avvalo, har tomonlama sog‘lom bo‘lishi lozim. Inson qachon sog‘lom bo‘ladi, qachonki, sifatli tibbiy xizmatdan o‘z vaqtida foydalansa, chinakam yashash zavqini tuysa!

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z vazifasiga kirishgan ilk kunlardayoq tinchlik hamda salomatlik masalalari aholimiz hayotidagi eng muhim ustuvor masalalar ekanligini ta’kidlab, ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish ishlari boshlangan edi. Oxirgi olti-yetti yilda mamlakatimizda aholiga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini bugun xalqimiz o‘z kundalik hayotida sezmoqda, his etmoqda.

Buni birgina o‘tgan davrda aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish, tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish va ularning sifatini oshirish, tibbiyot muassasalarining

moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda kadrlar salohiyatini oshirish borasida erishilgan ijobiy natijalar misolida ham ko‘rish mumkin. Xususan, aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘lamini kengaytirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Sirdaryo viloyatida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshirildi.

Sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot muassasalari faoliyatini ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etish, tibbiyot kadrlarining salohiyatini oshirish, nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlatimiz rahbarining joriy yil 22 yanvardagi qarori bilan Sog‘liqni saqlash vazirligi tuzilmasida davlat muassasasi shaklida “Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi” loyiha ofisi tashkil etilgan edi.

Prezidentimiz shu yil 21-may kuni Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Xususan, birlamchi bo‘g‘in va tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirish, davlat tibbiy sug‘urtasini joriy etish, dori-darmonlar xaridini tartibga solish borasida ishlab chiqilgan takliflar atroflicha muhokama etildi.

Qayd etish joiz, tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirish borasida birgina Toshkent shahrining o‘zida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tez tibbiy yordam mashinalari parki to‘liq yangilandi, tez yordam “koll-markazi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi kunda shahar aholisiga 235 ta tibbiy yordam brigadasi xizmat ko‘rsatmoqda. Lekin tahlillar ushbu tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Chunki, ayni paytda birgina Toshkent shahrida tez tibbiy yordam chaqiruvlari soni 1 mln. 363 mingtani tashkil etmoqda. Shuning uchun ham chaqiruvlarni qabul qilish jarayonida ularni saralashni yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda. Bunda chaqiruv sabablarini aniqlash orqali “oddiy”, ya‘ni bemorning issig‘i chiqishi, yo‘talishi yoki boshqa — bevosita tibbiyot xodimining ishtirokisiz amalga oshirish mumkin bo‘lgan masalalar bo‘yicha “Tibbiy maslahat” shifokorlari

guruhi tashkil etiladi va masofaviy maslahat berish amaliyoti joriy qilinadi. Qolgan chaqiruvlar esa tibbiy brigadaga yo‘naltiriladi.

Tez tibbiy yordam brigadalari bo‘yicha ham qator yangiliklar amalga oshiriladi. Ya‘ni, feldsherlik-paramedik, shifokorlik, pediatrik, reanimatsion hamda psixiatrik brigadalar tashkil etiladi. Boisi, chaqiruv sabablari aniqlanayotganda bemorning yoshi, kasallik alomatlaridan kelib chiqqan holda tibbiy brigadani yo‘naltirish bemor hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu yilning o‘zida Toshkent shahrida haydovchi va feldsher-paramedikdan iborat 47 ta hamda faqat feldsher-paramedikdan iborat yana 47 ta brigada tashkil etish, shuningdek, 69 ta pediatrik, 91 ta terapevtik, 24 ta reanimatsion va 4 ta psixiatrik brigadalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ko‘zlanmoqda.

Shubhasiz, ushbu sa‘y-harakatlar natijasida tez yordam chaqiruvlariga yetib borish vaqti 10-40 daqiqagacha qisqaradi. Eng muhimi, pediatrik brigadalarni tashkil etish orqali bolalarga uyda sifatli va samarali tez tibbiy yordam ko‘rsatilishi hisobiga shifoxonada o‘rinlar yuklamasi kamayadi.

Tez tibbiy yordam tizimida ushbu yangiliklarni joriy etish tarmoqqa yo‘naltirilayotgan mablag‘larni iqtisod qilish hamda boshqa ishlarga yo‘naltirish imkonini ham beradi. Masalan, Toshkent shahridagi chaqiruvlarning 5 foizini “oddiy” chaqiruvlar, deb hisoblab ularga tibbiy maslahat berish orqali masalasini hal etish yiliga kamida 150 mlrd. so‘m mablag‘ni iqtisod qilishga olib keladi. Yoki feldsherlik-paramedik brigadalarga elektromobillar joriy etish natijasida 60 mlrd. so‘m tejiladi.

Xulosa va takliflar: Umuman olganda, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini yanada oshirish ushbu sohaga ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish hamda aholimizning bu ishlarni chuqur anglagan holda qo‘llab-quvvatlashiga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, har bimiz ushbu sohani yanada takomillashtirish yuzasidan o‘z taklif va tavsiyalarimizni bildirish, hech bo‘lmaganda o‘z sog‘lig‘imizga e‘tiborli bo‘lib, sog‘lom turmush tarziga rioya etish orqali tibbiyot xodimlariga ko‘maklashishimiz lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi - rasmiy veb-sayti va uning nashrlari, islohotlar to‘g‘risida yangiliklar va statistik ma‘lumotlar.
2. "World Health Organization (WHO) Reports" - Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining O‘zbekistondagi sog‘liqni saqlash tizimi haqidagi hisobotlari va tavsiyalari.
3. "Health Systems in Transition: Uzbekistan" - Tadbirkorlik va Sog'liqni Saqlash Markazi tomonidan nashr etilgan hisobot.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari - Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni belgilovchi hujjatlar. www.Lex.uz



Research Science and Innovation House